

ISSN: 3030-3877

AJCD
2024

<https://tadqiqot.uz/index.php/spjacd>



Annals of clinical disciplines



VOLUME 3, ISSUE 2

2026

ISSN 3030-3877

DOI Journal 10.26739/3030-3877

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE


3 ЖИЛД, 2 СОН

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

ТОМ 3, НОМЕР 2

КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

VOLUME 3, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2026

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

Sh. J. Teshayev

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharriri, Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori, t.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

D. A. Xasanova

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharrir o'rinbosari, Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya va klinik anatomiya kafedrası professori, DSc

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

- **U.K. Abdullayeva** - “Klinik fanlar yilnomasi” jurnali mas'ul kotibi, Buxoro davlat tibbiyot instituti fakultet va hospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrası dotsenti, DSc
- **M.J. Sanoyeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti nevrologiya kafedrası dotsenti, DSc
- **A.G. Gadayev** - Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrası professori, t.f.d.
- **A.R. Obloqulov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **D.A. Nabiyeva** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son fakultet va hospital terapiya, kasb kasalliklari kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **Sh.T. O'roqov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti xirurgik kasalliklar kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **M.M. Karimov** - Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi “Gastroenterologiya” ilmiy laboratoriyasi boshlig'i, t.f.d., professor
- **N.U. Narzullayev** - Buxoro davlat tibbiyot instituti otorinolaringologiya kafedrası professori, DSc
- **G.N. Sobirova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi reabilitatsiya va jismoniy tarbiya kafedrası professori, t.f.d.
- **F.S. Raupov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar xirurgik kasalliklari kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **Sh.B. Axrorova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, nevrologiya kafedrası dotsenti, DSc
- **V.R. Akramov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **I.K. Sadulloeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar kasalliklari propedevtikasi va bolalar nevrologiyasi kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **M.K. Temirova** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Nevrologiya va bolalar nevrologiyasi, tibbiy genetika kafedrası assistenti PhD

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

- **G.J. Jarilkasimova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash kafedrası professori, DSc
- **U.S. Mamedov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti onkologiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **A.A. Saidov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası professori DSc
- **N.N. Karimova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-son akusherlik va ginekologiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **U.K. Qayumov** - tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini oshirish markazi ichki kasalliklar kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **M.E. Raximova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrası dotsenti, t.f.d.
- **R.I. To'raqulov** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrası professori, t.f.d.
- **Ch.S. Pavlov** - I.M. Sechenov nomidagi birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti terapiya kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **L.B. Novikova** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrası professori, t.f.d.
- **O.I. Letyayeva** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrası professori, t.f.d.
- **I.V. Reverchuk** - I.Kant nomidagi Boltiq federal universiteti psixonevrologiya va psixosomatika kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **Edip Gonullu** - Izmir Bakirchay universiteti anesteziya va reanimatsiya kafedrası dotsenti, t.f.d.
- **Eva Lietto** - Italiya Campania universiteti “Luigi Vanvitelli”ning tarjima tibbiyot fanlari kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **G.S. Xodjiyeva** - Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot universitetining Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası dotsenti

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 369/6 от 5 апреля 2025 г.

© Page Maker | Верстка | Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

О журнале


Журнал зарегистрирован в Агентство информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан
№ С-239963 от 14 марта 2024 года

Адрес редакции: Республика Узбекистан, 200114,
г. Бухара, ул. Гиждуван, 23
Телефон: +998(65)2230050
Сайт: <https://tadqiqot.uz/index.php/spjacd>
e-mail: abumkur14@gmail.com

1.	Ashurova N.G., Xotamova G.K. Afaziya: tushunchasi, insultdan keyin rivojlanish mexanizmlari va zamonaviy klinik tasnifi.....	7
2.	Ashurova N.G., Ismatova M.N., Ismoilova M.S. Helicobacter pylori bilan assotsirlangan me'da va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi va D vitamini tanqisligi: muammo adabiyotlar talqinida.....	12
3.	Axmedova D.B., Ashurova N.G., Rajabova M.G. Surunkali migrenning klinik xususiyatlari va ularning kognitiv funksiyalarga ta'siri.....	20
4.	Babadjanov B.B., Kasimov U.Q., Djurayev A.M. O'zbekistonda yumshoq to'qimalarning jarrohlik infeksiyasi: muammoning holati va yechim yo'llari.....	27
5.	Badridinova B.K., Xasanova N.Q. Terminal buyrak yetishmovchiligi: epidemiologiyasi, etiologiyasi va buyrak o'rnini bosuvchi terapiyaning samaradorligi.....	35
6.	Djumaniyazova N.S. Homiladorlik davrida COVID-19 bilan kasallangan onalardan tug'ilgan chaqaloqlarning immun organlaridagi patomorfologik va gistologik o'zgarishlar.....	44
7.	Mansurova N.A. Parkinsonizm sindromini qiyosiy tashxislashda zardobdagi yallig'lanisholdi sitokin kaskadi markerlarining ahamiyati.....	50
8.	Mirzajonova D.B., Bobojonova N.I. Gelmintozlarda IL-6, IL-10 va TNF- α sitokinlari darajasining dinamik o'zgarishi hamda ularning diagnostik va prognostik ahamiyati.....	57
9.	Mirzayeva G.P., Jabbarov O.O. Clinical and biochemical characteristics of blood parameters in pregnant women with preeclampsia associated with chronic kidney disease.....	61
10.	Qobilova G.A., Ravshanova G.O. Qandli diabet kasalligida tibbiy sug'urta tizimining aholi salomatligiga tasiri.....	68
11.	Rahmatova S.N., Ashurova N.G., Umarova Sh.K., Sunnatova N.Z. Miya qon aylanishi yetishmovchiligi: sabablari, rivojlanish mexanizmlari va oldini olish usullari.....	73
12.	Raximov A.A., Babajanov T.J., Abdolov I.B., Saidov Sh.M. 2-tip qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda burun bo'shlig'i shilliq qavatini klinik-funksional baholash.....	79
13.	Safoyev B.B., Raxmatullayev J.D., Boltayev T.Sh. Peritoneal va enteral lavaj usulini tarqalgan yiringli peritonitda qo'llashning samaradorligini baholash.....	84
14.	Shukurov A.F., Shukurova N.T. Stomatologik amaliyotda tibbiy hujjatlar sifati va nizolarni kamaytirish.....	93
15.	Xidoyatova M.R., Ismatova S.A. Revmatik isitma va mitral klapan zararlanishida birlamchi profilaktikaga zamonaviy yondashuvlar.....	97

16. **Xatamov U.A., Boymurodov Sh.A.**
Biomechanical patterns and clinical characteristics of combined maxillofacial trauma: a retrospective analysis.....104
17. **Абдуллаев Ш.Ю., Жданов А.В., Хатыпова М.Г., Джумаев Ф.А.**
Внедрение индивидуальной зубоальвеолярной каппы в хирургическую стоматологию.....112
18. **Абдуллаев Ш.Ю., Жданов А.В., Хатыпова М.Г., Джумаев Ф.А., Нурматова Х.Т.**
Способ использования полимерной пластины и микровинтов для фиксации десневого мягкотканного аутоотрансплантата.....118
19. **Абдуллаева У.К., Мавлонов Б.О., Рахимова М.Б.**
Миокард инфаркти билан оғриган беморларнинг кардиореабилитацияси.....125
20. **Абдуллаева У.К., Шодиев Н.Д., Рахимова М.Б.**
Ярали колит: лаборатор диагностик мезонлар.....136
21. **Абдуллаева У.К., Лутфуллаев О.О., Рахимова М.Б.**
Бронхиал астма билан касалланган беморларда кардиореспиратор тизимнинг функционал ҳолати.....145
22. **Алимова М.М.**
Морфологические особенности эндометрия у женщин с климактерическим синдромом.....152
23. **Алимова Н.П., Хасанова Д.А.**
Количественный морфометрический анализ нёбной миндалины у детей первого периода детства (4–7 лет) в условиях физиологической нормы.....157
24. **Алимова Н.П., Хасанова Д.А.**
Морфометрическая характеристика нёбной миндалины у клинически здоровых детей второго периода детства (8–12 лет).....165
25. **Амонова Н.М., Ризаева М.А., Умурова Н.М.**
Метаболический синдром как основа формирования предиабетических состояний.....171
26. **Ахророва Ш.Б., Камалова Ф.У., Примов А.Д.**
Вестибуляр мигрень ва унинг ўзига хос клиник кечиши.....177
27. **Буранова Д.Ж.**
Сурункали буйрак касаллигида клиник-лаборатор кўрсаткичларнинг ўзига хос хусусиятлари.....187
28. **Гадаев А.Г., Халилова Ф.А., Гадаева Н.А., Бобоев А.Т.**
Кардиоренал синдром мавжуд беморларда клиник ҳолат, ҳаёт сифати ва жисмоний юкламага чидамлилиқ кўрсаткичларининг биомаркерлар билан ўзаро боғлиқлиги.....193
29. **Гадаев А.Г., Бобоев А.Т., Тўракулов Р.И., Халилова Ф.А.**
Сурункали юрак етишмовчилиги негизда ривожланган кардиоренал синдромда чап қоринча ремоделинги геометрик типлари ва уромодулин даражасининг ўзаро боғлиқлиги.....202
30. **Горбач А.Е., Волошенюк А.Н., Кандыбо С.Ч., Римша М.А.**
Дистанционное консультирование очевидцев происшествий: оценка готовности персонала и барьеры внедрения в службе скорой медицинской помощи республики беларусь (пилотное исследование).....211

31. **Гулямова Д.Н., Бобожонов Ж.Р.**
Болаларда вирусли этиологияли қайтувчи орқа лейкоэнцефалопатия синдроми: клиник ҳолат таҳлили.....218
32. **Жумаев А.Х., Саидов А.А.**
Функциональный қолип индивидуальной ложкой в сравнении со стандартным қолипом при частичном съёмном протезировании лиц пожилого возраста: влияние на качество жизни и адаптацию.....223
33. **Индиаминов С.И., Шойимов Ш.У.**
Особенности повреждений костей конечностей у лиц пешеходов погибших от столкновения легковыми автомобилями нового поколения.....233
34. **Каримов М.Ш., Шукурова Ф.Н., Норматова К.Ш.**
Ревматоид артритда такомиллаштирилган даволашнинг фетуин-А, TLR4 ва яллиғланиш биомаркерлари динамикасига таъсири.....242
35. **Нурбобоев А.У., Сафоев Б.Б., Махмудова Г.Ф.**
Современное состояние вопросов лечения инфицированных ран.....250
36. **Нуруллаев Б.Б., Мадиримова Л.О.**
Бактериал конъюнктивитлар кўзғатувчиларини идентификация қилишнинг ўзига хос хусусиятлари.....260
37. **Пулатова Ш.Х.**
Юрак етишмовчилиги бор беморларда сурункали буйрак етишмовлигининг клинко-иммунологик ва генетик ўрганиш усуллари.....269
38. **Рахимова М.Э., Гадаев А.Г., Иброхимов С.Б.**
Сурункали юрак етишмовчилиги билан оғриган беморларда KLOTНО оксигенинг кардиоренал дисфункцияни аниқлашдаги таъхисий аҳамияти.....275
39. **Рахмонова Ш.Р.**
Гемодиализдаги болаларда тиш қаттиқ тўқималари ҳолати ва минерал алмашинув кўрсаткичлари ўртасидаги боғлиқлик.....282
40. **Сафоев Б.Б., Хамроев У.П., Сафоев Б.Б.**
Оценка эффективности применения операции рамиреса при лечении больных с грыжами передней брюшной стенки.....290
41. **Сидикова Г.Ш.**
Ўртача оғир даражадаги орқа мия жароҳатининг ўткирлашган ва ўткир даврларида ингичка ичакнинг морфологик хусусиятлари.....299
42. **Хатамов У.А.,**
Боймуродов Ш.А. Биомеханическая оценка плотности, пористости и распределения напряжений в костях лицевого скелета при травматическом воздействии.....305
43. **Ҳожиев Ш.Ш.**
Экспериментал карбоксигемоглобинемияда уруғдон морфологиясининг ўзгариши....314
44. **Убайдуллаева Н.Н., Хайдарова Ф.А., Исмагуллаева С.С., Саидова С.Х.**
Иммунологическая характеристика больных с коморбидным течением бронхиальной астмой и сахарным диабетом 2- типа.....320



Qobilova G.A., Ravshanova G.O. Qandli diabet kasalligida tibbiy sug'urta tizimining aholi salomatligiga tasiri // Klinik fanlar yilnomasi. 2026, 3-jild, 2-son, 90-95-b.

UDK 614.2:368.94:616.379-008.64

Qobilova G.A.

ORCID ID: 0009-0004-9752-1642

Ravshanova G.O.

ORCID ID: 0009-0004-6427-0226

Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston

QANDLI DIABET KASALLIGIDA TIBBIY SUG'URTA TIZIMINING AHOLI SALOMATLIGIGA TASIRI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22049377>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qandli diabet kasalligida tibbiy sug'urta tizimining aholi salomatligiga ko'rsatadigan tasiri keng tahlil qilinadi. Turli mamlakatlar tajribasidan olingan empirik malumotlar asosida sug'urta qamrovi kengayishining diabetli bemorlar uchun tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini qanchalik yaxshilashi, qon shakar darajasini nazorat qilish samaradorligiga va kasallik asoratlarning oldini olishga qanday tasir etishi organiladi. Maqolada shuningdek orta va past daromadli mamlakatlar uchun milliy tibbiy sug'urta tizimining diabetga qarshi kurashda tutgan o'rni alohida ko'rsatib otiladi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, keng qamrovli tibbiy sug'urta diabetli bemorlar uchun davolash xarajatlarini kamaytiradi, kasalxonaga yotqizish holatlarini qisqartiradi va umuman sog'liq ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Kalit sozlar: qandli diabet, tibbiy sug'urta, aholi salomatligi, HbA1c nazorati, Medicaid, sug'urta qamrovi, surunkali kasalliklar, davolash xarajatlari, profilaktika.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the impact of the medical insurance system on public health in diabetes mellitus. Based on empirical data from various countries, the study examines how the expansion of insurance coverage improves access to medical services for diabetic patients, how it affects the effectiveness of blood glucose control, and how it prevents disease complications. The article also highlights the role of the national medical insurance system in the fight against diabetes for middle- and low-income countries. The research results confirm that comprehensive medical insurance reduces treatment costs for diabetic patients, decreases hospitalization cases, and improves overall health indicators.

Keywords: diabetes mellitus, medical insurance, public health, HbA1c control, Medicaid, insurance coverage, chronic diseases, treatment costs, prevention.

ВЛИЯНИЕ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО СТРАХОВАНИЯ НА ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ

Кобилова Г.А.

ORCID: 0009-0004-9752-1642

Равшанова Г.О.

ORCID: 0009-0004-6427-0226

Бухарский государственный медицинский институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация. В данной статье проводится широкий анализ влияния системы медицинского страхования на здоровье населения при сахарном диабете. На основе эмпирических данных, полученных из опыта различных стран, исследуется, насколько расширение страхового покрытия улучшает доступность медицинских услуг для больных диабетом, как оно влияет на эффективность контроля уровня сахара в крови и на предотвращение осложнений заболевания. В статье также особо подчеркивается роль национальной системы медицинского страхования в борьбе с диабетом для стран со средним и низким уровнем дохода. Результаты исследования подтверждают, что широкое страховое покрытие снижает расходы на лечение больных диабетом, сокращает случаи госпитализации и в целом улучшает показатели здоровья.

Ключевые слова: сахарный диабет, медицинское страхование, здоровье населения, контроль HbA1c, Medicaid, страховое покрытие, хронические заболевания, расходы на лечение, профилактика.

Kirish. Qandli diabet (QD) bugungi kunda jahon sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bolib, butun dunyoda 500 milliondan ziyod kishini qamrab olgan. Bu kasallik nafaqat bemorlar hayot sifatini keskin pasaytiradi — yurak-qon tomir, buyrak va korish organlari asoratlariga duchor qiladi, balki milliy sog'liqni saqlash tizimiga ham jiddiy iqtisodiy yukni olib keladi. Qandli diabet bilan bog'liq davolash xarajatlari yildan-yilga oshib bormoqda va bu ko'rsatkich ko'plab mamlakatlarda sog'liqni saqlash byudjetining salmoqli qismini tashkil etmoqda.

Ushbu sharoitda tibbiy sug'urtaning diabetli bemorlarning tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati va sog'liq natijalari bilan bog'liqligi olimlar hamda siyosatchilar diqqatini tobora ko'proq jalb etmoqda. Tibbiy sug'urtaning mavjudligi yoki yoqligi bemorning shifokorga murojaat qilish darajasini, qon shakar ko'rsatkichini muntazam tekshirib borish intizomini, insulin va zarur dori-darmonlarni oz vaqtida olish imkonini va pirovardida kasallik asoratlarining rivojlanishini bevosita belgilaydi.

Daw va Sommers (2018) takidlaganidek, tibbiy sug'urta qamrovining kengayishi, xususan AQSHdagi Affordable Care Act doirasida amalga oshirilgan islohotlar, diabet va gipertoniya kabi surunkali kasalliklar boyicha tibbiy yordam ko'rsatish sifatiga sezilarli ijobiy tasir ko'rsatgan [4]. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — turli mamlakatlar tajribasini tahlil etish orqali tibbiy sug'urta tizimining qandli diabet kasalligida aholi salomatligiga tasirini ko'rsatish hamda bu yonalishdagi global tendensiyalarni organishdan iborat.

Asosiy qism. Tibbiy sug'urta va qandli diabet: nazariy asoslar

Qandli diabetni boshqarish doimiy, uzluksiz tibbiy kuzatuv va samarali farmakologik davolashni talab etadi. Ushbu tizimli yondashuvsiz bemor qon shakari darajasining nazoratini yoqotib, jiddiy asoratlarga duchor bo'ladi. Nam va boshq. (2019) otkazgan keng kolamli tadqiqot shuni ko'rsatdiki, uzluksiz tibbiy yordamdan foydalanish 2-toifa qandli diabet bemorlarida sog'liq natijalarini yaxshilash va sog'liqni saqlash xarajatlarini kamaytirishga bevosita yordam beradi [7]. Bemorlar tibbiy kuzatuvga muntazam kirib turganda HbA1c ko'rsatkichlarini meyoriy doirada ushlab turish imkoniyatiga ancha katta darajada ega bo'ladilar.

Tibbiy sug'urtaning qandli diabetni boshqarishdagi roli kamida uchta asosiy yonalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, sug'urta qamrovi bemorlarning birlamchi tibbiy yordamga, endokrinologga va boshqa mutaxassislariga murojaat qilish imkoniyatini oshiradi. Ikkinchidan, qimmatbaho dori-darmonlar va insulinni oz vaqtida olishni taminlaydi. Uchinchidan, retinal tekshiruv, buyrak funksiyasini nazorat qilish va oyoq kasalliklari boyicha profilaktik koriklar uchun

moliyaviy tosiqlarni yoq qiladi. Akpenyi va boshq. (2021) kuzatuvlari ham ushbu yonalishlarning amaliyotdagi tasdigini beradi [1].

Sug'urta qamrovini kengaytirish va uning natijalari

AQSHda amalga oshirilgan Affordable Care Act (ACA) islohotlari tibbiy sug'urta va surunkali kasalliklar natijalarini boglaydigan yirik tabiiy tadqiqot maydoniga aylandi. Myerson va Laiteerapong (2016) takidlaganidek, ACA diabetni aniqlash va kuzatishning ko'plab jihatlariga sezilarli tasir ko'rsatishga potentsialga ega: oldini olish xizmatlari, erta tashxislash va uzluksiz davolash imkoniyatlarini kengaytirish orqali [6]. Sug'urtasiz aholi qatlamlari esa ko'pincha tashxis qoyilishini kechiktirib, kasallik ancha ogir bosqichlarda bilinadi.

Huguet va boshq. (2018) tomonidan otkazilan tadqiqot Medicaid kengaytmasi tatbiq etilgan holatlarda sog'liqni saqlash markazlarida diabet testlari va tashxisini qoyish ko'rsatkichlarini organib chiqdi [5]. Tadqiqot natijalariga kora, Medicaid kengaytmasi joriy etilgan shtatlarning sog'liqni saqlash markazlarida yangidan tashxislangan diabet holatlari sezilarli darajada ko'paygan. Bu esa sug'urta qamrovining kengayishi ilgari tashhislanmagan bemorlarni aniqlashda muhim rol oynashini yaqqol ko'rsatib berdi.

OBrien va boshq. (2017) tadqiqotida Medicaid kengaytmasining jamoat sog'liqni saqlash markazlaridagi diabet boshqaruviga erta tasiri korib chiqildi [8]. Mazkur ishda takidlanishicha, Medicaid kengaytmasi amalga oshirilgandan keyin sug'urta qamrovi kengaygan bemorlarda HbA1c testini otkazish ko'rsatkichi oshgan, bu esa diabetni nazorat qilish sifatining yaxshilanganligidan dalolat beradi. Sug'urtasi yoq bemorlar ko'pincha dori-darmonlarni xarid qilishda moliyaviy qiyinchiliklar tufayli davolanishni tola-tokis amalga oshira olmasdi.

Sommers va boshq. (2016) tadqiqotida past daromadli kattalar orasida Medicaid kengaytmasi yoki kengaytirilgan xususiy sug'urta qabul qilinganidan song tibbiy xizmatdan foydalanish va sog'liq ko'rsatkichlarining ozgarishi organildi [10]. Tadqiqot malumotlari shuni ko'rsatdiki, sug'urta qamrovi kengayishi bilan davolanish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Aholi oz sogligini yaxshi deb baholaganlar ulushi ham ortdi. Ushbu natijalar tibbiy sug'urtaning nafaqat xizmatdan foydalanish, balki bemorlar hayot sifatini subektiv baholash bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatib berdi.

Diabet boshqaruvining asosiy klinik mezonini bolmish glikozilangan gemoglobin (HbA1c) ko'rsatkichi tibbiy sug'urta tizimida monitoring qilish va sug'urta tolovlarini belgilash uchun eng muhim olchov vositalaridan biridir. Prentice va boshq. (2016) tadqiqoti 2-toifa diabet bemorlarida HbA1c ozgaruvchanligining sog'liq natijalari bilan mustaqil bog'liqligini aniqladi [9]. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, HbA1c ko'rsatkichi ozgaruvchanligining oshishi yurak-qon tomir kasalliklari, buyrak etishmovchiligi va olimning oshgan xavfi bilan bog'liq.

Ayniqsa etiborga molik jihat shundaki, HbA1c ozgaruvchanligi tibbiy kuzatuvga muntazam kirib turish va dori-darmonlarni toliq qollash imkoniyati cheklangan bemorlarda ko'proq kuzatiladi — yani tibbiy sug'urtaga kirishmagan yoki daromadi past bolgan guruhlarda [9]. Bu esa sug'urta tizimi va glikemik nazorat ortasidagi bevosita zanjirni yanada aniqroq kozga tashlab beradi.

Akpenyi va boshq. (2021) Merilend shtatida diabetli bemorlar orasida sug'urta va sog'liq natijalari ortasidagi bog'liqlikni retrospektiv arxiv malumotlari asosida organdi [1]. Ushbu ishda tibbiy sug'urta mavjud bolgan bemorlar sug'urtasiz tengosha bemorlarga nisbatan HbA1c ko'rsatkichini nazorat darajasida ushlab turish ehtimoliyati ancha yuqori ekani aniqlandi. Bundan tashqari, sug'urtali bemorlar qandli diabetning asoratlari — diabetik ketoacidoz, neyropatiya va retinopatiya tufayli kasalxonaga yotqizilish ko'rsatkichlari pastligi ham qayd etildi.

Rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda orta va past daromadli mamlakatlar uchun ham qandli diabetni milliy tibbiy sug'urta doirasida boshqarish jiddiy dolzarb masala bolib qolmoqda. Baek va boshq. (2021) milliy tibbiy sug'urta qamrovini kengaytirishning diabet natijalari va chet-jordan tolovlarga tasirini organdi [2]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sug'urta qamrovini kengaytirish diabetli bemorlar uchun togridan-togri tibbiy xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi va glikemik nazorat ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Beran va boshq. (2019) orta va past daromadli mamlakatlarda diabet boyicha tibbiy yordamga kirish imkoniyatiga milliy tibbiy sug'urtaning ozgartiruvchi rolini keng kolamda tadqiq

qildi [3]. Ushbu tadqiqot ko'rsatishicha, bu mamlakatlar aholisining katta qismi asosiy diabet dori-darmonlarini, jumladan insulin va metforminni xarid qila olmaydi. Milliy sug'urta tizimlarining joriy etilishi dori-darmonlarga va diagnostika xizmatlariga real kirish imkoniyatini sezilarli yaxshilaydi. Biroq, faqat sug'urta qamrovini kengaytirish bilan cheklanish yetarli emas — sog'liqni saqlash infratuzilmasini mustahkamlash, malakali tibbiy kadrlar soni va geografik taqsimotini optimallashtirish ham bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi zarur.

Mazkur tadqiqotda shuningdek takidlanishicha, orta va past daromadli mamlakatlarda diabet boshqaruviga moljallangan sug'urta paketlarini ishlab chiqishda mahalliy iqtisodiy sharoitlar, kasallikning tarqalishi va sog'liqni saqlash tizimining mavjud imkoniyatlari inobatga olinishi lozim [3]. Bir tomonlama, universal yechimlar o'rniga mamlakat sharoitiga moslashtirilgan yondashuvlar ko'proq natija beradi.

Tibbiy sug'urtaning diabet natijalariga tasiri ko'plab hollarda uzluksiz tibbiy yordam mexanizmi orqali amalga oshadi. Nam va boshq. (2019) Janubiy Koreya milliy sug'urta malumotlari bazasini tahlil qilib, uzluksiz tibbiy yordamning 2-toifa qandli diabet bemorlarida uzoq muddatli sog'liq natijalari va xarajatlarga tasirini organdi [7]. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, tibbiy kuzatuv darajasi yuqori bolgan bemorlar HbA1c, arterial bosim va qon yogli boyicha ko'rsatkichlar yaxshiroq nazorat qilinishiga ega, kasalxonaga yotqizilish ko'rsatkichlari esa pastroq bo'ladi.

Tibbiy sug'urta ushbu uzluksiz kuzatuvni moliyaviy jihatdan qollab-quvvatlab, bemorlarning oz vaqtida tibbiy korik otkazishini va zarur tahlillarni topshirishini taminlaydi. Sug'urtasi yoq bemorlar esa ko'pincha otkir asoratlar paydo bolmaguncha shifokorga murojaat qilishni kechiktiradi — bu esa pirovardida kasalxona xarajatlarining ko'payishiga va sog'liq ko'rsatkichlarining yomonlashishiga olib keladi [4]. Bunday vaziyatda davolash ko'proq xarajat va kam natijani anglatadi.

Sug'urta tizimlarining samaradorligini yanada oshirish uchun xavfga yonaltirilgan sug'urta modellari, uy sharoitida monitoring uchun raqamli texnologiyalarni qollash va profilaktik dasturlarni sug'urta tolovlari bilan birgalikda olib borish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday yondashuv, bir tomondan, davolash xarajatlarini kamaytiradi, ikkinchi tomondan esa bemorlar sogligini uzoq muddatli saqlash imkonini beradi.

Xulosa. Amalga oshirilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, tibbiy sug'urta tizimi qandli diabet kasalligida aholi salomatligiga ko'pqirrali va kuchli ijobiy tasir ko'rsatadi. Turli mamlakatlar va turli sug'urta modellarida olingan malumotlar bir xulosaga olib keladi: sug'urta qamrovining kengayishi diabetli bemorlar uchun tibbiy xizmatga kirish imkoniyatini oshiradi, glikemik nazoratni yaxshilaydi va asoratlarning rivojlanishini oldini oladi.

Ayni chogda tadqiqotlar shuni ham ochib bermoqdaki, sug'urta tizimining mavjudligi ozi yetarli emas. Sug'urta paketlariga kiritilgan xizmatlar doirasi, dori-darmonlar royxatining kengligi, tibbiy muassasalarga geografik kirish imkoniyati va shifokor-bemor munosabatlarining uzviyligi kabi omillar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tibbiy sug'urta tizimini faqat moliyaviy qamrov nuqtai nazaridan emas, balki kompleks — infratuzilma, kadrlar va texnologik jihatlarini birlashtirgan tarzda loyihalash zarur.

Orta va past daromadli mamlakatlarda milliy tibbiy sug'urtani diabetga qarshi kurashning asosiy siyosiy vositasi sifatida qollash global salomatlik maqsadlariga erishishda muhim qadam bola oladi. Kelajakda ushbu sohada yanada chuqurroq empirik tadqiqotlar jumladan, Ozbekiston sharoitida diabetli bemorlar orasida sug'urta qamrovi va sog'liq natijalari bog'liqligini organuvchi mahalliy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akpenyi O., Nuhu A., Mbaezue N. (2021). The relationship between insurance and health outcomes of diabetes mellitus patients in Maryland: a retrospective archival record study // PubMed Central (PMC). – PMID: PMC8146634.

2. Baek J., Kim H., et al. (2021). Impact of National Health Insurance Expansion on Diabetes Outcomes and Out-of-Pocket Costs // *Journal of Health Economics and Outcomes Research*. – T. 8. – No. 2. – S. 45-52.
3. Beran D., Yudkin J. S., de Courten M. (2019). Access to care for patients with diabetes in low- and middle-resource settings: The transformative role of national health insurance // *BMJ Global Health*. – T. 4. – No. 3. – S. e001345.
4. Daw J. R., Sommers B. D. (2018). Health insurance coverage and care for diabetes and hypertension under the Affordable Care Act // *Journal of General Internal Medicine*. – T. 33. – No. 12. – S. 2195-2201.
5. Huguet N., Baier C. G., Marino M., et al. (2018). Rates of diabetes testing and diagnosis after Medicaid expansion in health centers // *Diabetes Care*. – T. 41. – No. 4. – S. 773-779.
6. Myerson R., Laiteerapong N. (2016). The Affordable Care Act and diabetes diagnosis and care: exploring the potential impacts // *Current Diabetes Reports*. – T. 16. – No. 4. – S. 1-8.
7. Nam J. H., Lee C., Kim N., Park K. Y., Ha J. (2019). Impact of continuous care on health outcomes and cost for type 2 diabetes mellitus: analysis using national health insurance cohort database // *Diabetes & Metabolism Journal*. – T. 43. – No. 6. – S. 776-784.
8. O'Brien M. J., Rittko A. K., Hughes L. S., et al. (2017). Early impact of Medicaid expansion on diabetes management in community health centers // *American Journal of Preventive Medicine*. – T. 53. – No. 1. – S. 98-102.
9. Prentice J. C., Pizer S. D., Conlin P. R. (2016). Identifying the independent effect of HbA1c variability on adverse health outcomes in patients with Type 2 diabetes // *Diabetic Medicine*. – T. 33. – No. 12. – S. 1640-1648.
10. Sommers B. D., Blendon R. J., Orav E. J. (2016). Changes in utilization and health among low-income adults after Medicaid expansion or expanded private insurance // *JAMA Internal Medicine*. – T. 176. – No. 10. – S. 1501-1509.

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

Научно-практический журнал по всем
направлениям медицины

основан в 2024 году

Бухарским государственным
медицинским институтом

Выходит один раз в 3 месяца

Учредитель Бухарский государственный
медицинский институт